TURIZM XIZMATLARINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA HUDUDLARNI TURISTIK FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA ZONALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Asraqulov Abduraxmon Sultonovich
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi, i.f.f.d. (PhD), dotsent
(+99890) 582 02 71
asasrakulov@gmail.com

Annotasiya. *Mazkur tadqiqot ishida Farg'ona vodiysida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishda hududlarni turistik faoliyat turlari bo‘yicha zonalashtirish istiqbollari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik omillarni o‘z ichiga oladi.*

Tadqiqotning maqsadi – Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari) hududlarida turizm faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini zonalashtirish asosida belgilash va taklif etishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, integral baholash va strategik rejalashtirish usullaridan foydalanildi.

Hududiy zonalashtirish jarayoni tabiiy resurslar, ekologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, madaniy meros, transport va infratuzilma, huquqiy va institutsional omillar, moliya va investitsiyalar kabi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Tadqiqot jarayonida turistik zonalar faoliyatini baholashning 10 bosqichli uslubiyati ishlab chiqildi hamda hududiy turistik salohiyatni baholashning integral ko‘rsatkichlari tizimi taklif etildi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida turistik zonalar faoliyatini rivojlantirishning ikki asosiy strategik yo‘nalishi – turistik faoliyat turlari bo‘yicha hududiy turistik zonalarning mamlakat va xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirish hamda hududda turistik faoliyat turlari rivojlanishining kelgusi davrda barqaror va inklyuziv ekanligiga to‘laqonli ishonchni shakllantirish belgilandi. Tadqiqot natijasida Farg‘ona vodiysi uchun “Oltin vodiy sayyohlik halqasi” deb nomlangan turistik marshrutlar majmui taklif etildi. Ushbu turistik yo‘nalish Farg‘onada 22 ta, Andijonda 18 ta va Namanganda 17 ta tashrif obyektlarini o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, hududiy turizm faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Farg‘ona vodiysi misolida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishning hududiy zonalashtirishga asoslangan uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududlarda turizm faoliyatini mustaqil tizim sifatida shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi hamda mintaqaviy turizm siyosatini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar*: turizm, strategik rivojlantirish, hududiy zonalashtirish, turistik zona, Farg'ona vodiysi, turistik marshrut, resurs salohiyati, infratuzilma, investitsiya, barqaror rivojlanish.*

KIRISH

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar hamda jahon iqtisodiyotida turizm sohasining tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Turizm xizmatlari global iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy o‘sishni

ta’minlaydi, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi [4]. Mazkur tadqiqot ishi Farg‘ona vodiysida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishda hududlarni turistik faoliyat turlari bo'yicha zonalashtirish istiqbollarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv sharoitida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik omillarni o‘z ichiga oladi. Strategik rivojlantirish deganda turizm xizmatlarining barqaror o‘sishini ta‘minlash uchun uzoq muddatli va tizimli rejalashtirish nazarda tutiladi [1]. Bu jarayonda turizm sohasida mavjud imkoniyatlar va muammolar chuqur tahlil qilinadi, kelgusidagi tendensiyalar prognoz qilinadi va aniq maqsadlarga erishish uchun samarali choralar ko‘riladi [5].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, turizm klasterlarini rivojlantirish ko‘plab mamlakatlarda turizm industriyasining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylangan [14]. Turizm klasterlari xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar, korxonalar va davlat institutlarini birlashtirib, umumiy turizm tajribasini yaxshilaydi, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshiradi. Zonalashtirish esa hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turizmni barqaror rivojlantirishning samarali usuli sifatida e’tirof etilmoqda [13].

Tadqiqotning maqsadi – Farg‘ona vodiysi hududlarida turizm faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini zonalashtirish asosida belgilash va taklif etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish;

turistik zonalashtirish tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash;

Farg‘ona vodiysida turizm faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

hududiy zonalashtirish jarayonining uslubiy yondashuvlarini taklif etish;

turizm faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti – Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari) hududlarida turizm faoliyati.

Tadqiqotning predmeti – hududlarni turistik faoliyat turlari bo‘yicha zonalashtirish jarayoni.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, Farg'ona vodiysi misolida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishning hududiy zonalashtirishga asoslangan uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgan hamda “Oltin vodiy sayyohlik halqasi” turistik marshrutlar majmui taklif etilgan [10; 11].

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm xizmatlarini strategik rivojlantirish va hududiy zonalashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, xizmatlar bozorining raqobatbardoshligini oshirish va investitsiya oqimlarini hududlar kesimida oqilona taqsimlash bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Turizmning iqtisodiyotdagi ulushi ortib borishi natijasida turistik resurslarni alohida

obyektlar kesimida rivojlantirishdan hududiy integratsiyalashgan tizimlarni shakllantirishga o‘tish tendensiyasi kuchaymoqda.

Turistik zonalashtirish tushunchasining nazariy asoslari N.S. Kudryavtsev, J.G. Trabskaya va L.V. Xoreva (2018) tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning fikricha, turistik zona sayyohlar o‘rtasida eng ko‘p talab qilinadigan yo‘nalishning ma’lum bir qismi bo‘lib, u milliy va jahon turistik bozorlariga olib boriladigan asosiy diqqatga sazovor joylarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ta’rif turistik zonaning bozor talabiga yo‘naltirilganligini ta’kidlaydi [1]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, turistik zonalarni shakllantirishda hududdagi mavjud resurslarning soni bilan cheklanmasdan, ularning turistlar uchun jozibadorligi, tashriflar intensivligi, xizmatlar sifati va xalqaro turizm bozoridagi tanilganlik darajasini ham hisobga olish lozim.

A.V. Lebedev (2019) esa turistik zonaga bir yoki bir nechta hududda joylashgan va turizm faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan resurs salohiyatiga ega hudud sifatida ta’rif beradi [2]. Olimning yondashuvida tabiiy, tarixiy-madaniy, iqtisodiy va infratuzilmaviy resurslarning hududiy uyg‘unligi asosiy o‘ringa ega. Ushbu qarash turistik zonalarni tashkil etishda hududning resurs bazasini oldindan baholash, mavjud turistik obyektlarning o‘zaro joylashuvini aniqlash va ularni yagona xizmatlar tizimiga birlashtirish zarurligini asoslaydi

S.A. Stepanova (2020) turistik zonani bir yoki bir nechta mintaqalar bilan bog‘liq bo‘lib, tashqi va ichki dasturlarga turistik xizmatlarni joriy etish imkoniyatiga ega hudud sifatida izohlaydi [3]. Ushbu ta’rif turistik zonalarning hududlararo hamkorlik, strategik rejalashtirish va davlat dasturlari bilan integratsiyalashuv xususiyatlarini ochib beradi. Olimning yondashuvi asosida turistik zonalarni rivojlantirishda ma’muriy-hududiy chegaralardan tashqari, iqtisodiy aloqalar, turistik marshrutlarning uzviyligi va xizmatlar ko‘rsatish tizimining yaxlitligini hisobga olish zarurligi ko‘rinadi.

Turistik hududlarni strategik rivojlantirish bo‘yicha ilmiy qarashlarda resurslardan foydalanish samaradorligi, hududiy ixtisoslashuv va turistik xizmatlar tarkibini diversifikatsiyalash masalalari ham alohida o‘rin egallaydi. Hududning turistik ixtisoslashuvi uning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy-madaniy merosi, iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlari va iste’mol bozoridagi talab xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, tog‘li hududlarda ekologik va rekreatsion turizm, tarixiy-madaniy meros obyektlari ko‘p joylashgan hududlarda ziyorat va madaniy turizm, qishloq xo‘jaligi rivojlangan hududlarda esa agroturizm va gastronomik turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish ustuvor hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda turizm klasterlarining raqobatbardoshligi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, Orlando (Florida), Toskana (Italiya) va Singapur kabi muvaffaqiyatli turizm klasterlari davlat-xususiy sheriklik, resurslarni taqsimlash va qo‘shma marketing sa’y-harakatlari orqali raqobatbardoshlikni oshirgan [14]. Bunday klasterlar faoliyatida mehmonxonalar, transport tashkilotlari, sayyohlik agentliklari, ovqatlanish korxonalari, madaniy muassasalar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari muhim o‘rin tutadi. Klasterli boshqaruv modeli turistik xizmatlar qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini yagona iqtisodiy manfaatlar asosida birlashtirishga yordam beradi.

Turizm klasterlarining rivojlanishida investitsion faollik ham alohida ahamiyat kasb etadi. Turistik hududlarda transport yo‘llari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, mehmonxonalar, dam olish maskanlari va zamonaviy xizmat ko‘rsatish obyektlarini barpo etish katta hajmdagi kapital qo‘yilmalarni talab qiladi. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xususiy investorlarni jalb qilish va hududiy infratuzilmani birgalikda rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Bunda investitsiyalarni hududlar o‘rtasida taqsimlashda ularning turistik salohiyati, kutilayotgan turistlar oqimi, loyiha rentabelligi va ijtimoiy-iqtisodiy samarasi hisobga olinishi lozim.

Raqamlashtirish va smart-turizm sohasidagi tadqiqotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sayyohlar qaror qabul qilish jarayoniga, turistik xizmatlarni tanlashiga va sayohatni rejalashtirishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Rivojlangan hududlar raqamli innovatsiyalarni samarali integratsiya qilishda, rivojlanayotgan hududlar esa infratuzilma, arzonlik va raqamli savodxonlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda [15]. Smart-turizm konsepsiyasi doirasida mobil ilovalar, elektron bronlash tizimlari, geografik axborot tizimlari (GIS), sun’iy intellekt va katta ma’lumotlardan foydalanish turistik hududlarni boshqarishning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Inklyuziv rivojlanish masalasida BMT Turizm va Jahon Turizm Tashkiloti hisobotlarida turizm siyosati, tartibga solish tizimlari va boshqaruv modellari barcha jamoa a’zolariga turizm faoliyatidan olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy foydalarni taqsimlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi [6; 16]. Ushbu yondashuv turistik hududlarni rivojlantirishda faqat yirik investorlar va turistik korxonalar manfaatlarini emas, balki mahalliy aholi, oilaviy tadbirkorlik subyektlari, hunarmandlar va xizmat ko‘rsatuvchi kichik biznes vakillarining iqtisodiy ishtirokini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Inklyuziv turizm modeli doirasida mahalliy aholini turistik xizmatlar zanjiriga jalb qilish, kasbiy tayyorgarligini oshirish va mahalliy mahsulotlarni turistik bozorlarga olib chiqish hududiy daromadlarning kengroq taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Turistik zonalashtirishning yana bir nazariy yo‘nalishi barqaror rivojlanish tamoyillari bilan bog‘liq. Turistik faoliyatning kengayishi tabiiy resurslarga antropogen bosimni oshirishi, tarixiy-madaniy meros obyektlarining saqlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va ayrim hududlarda ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli turistik zonalarni belgilashda hududning ekologik sig‘imi, tabiiy landshaftlarning barqarorligi, suv resurslari bilan ta’minlanganligi va rekreatsion yuklama darajasini hisobga olish zarur. Ekologik cheklovlar va hududning tabiiy xususiyatlariga asoslangan zonalashtirish turizmning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash bilan bir qatorda, tabiiy va madaniy merosni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadi doirasida yangi turizm yo‘nalishlari va mahsulotlarini shakllantirish, turizm qishloqlari, turistik va gastronomik ko‘chalar, ziyorat turizmi marshrutlari, plyaj, suv va cho‘l hududlarida dam olish turizmini rivojlantirish, mamlakat hududlarida tematik turistik zonalar va

klasterlarni tashkil etish vazifalari belgilangan [7]. Ushbu strategik vazifalar turizmni hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish, turistik xizmatlar tarkibini kengaytirish va hududlarning mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan. Bunda har bir hududning tabiiy-geografik, tarixiy-madaniy va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda turistik ixtisoslashuvini belgilash, xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini o‘zaro muvofiqlashtirish talab etiladi.

Farg‘ona viloyatida turizm salohiyatini iqtisodiy faoliyatga kengroq jalb etish yo‘nalishida Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinmoqda. Xususan, 2026-yil yanvar oyida “Farg‘ona” turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish bo‘yicha qaror qabul qilingani [8], shuningdek, viloyatda 2027-yilgacha 300 million dollarlik 50 ta yirik turizm loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgani [18] hududning turistik infratuzilmasini rivojlantirish va investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarni belgilaydi. Ushbu loyihalarning iqtisodiy samaradorligi turistik obyektlarni joylashtirish, transport-logistika aloqalarini rivojlantirish, xizmatlar ko‘rsatish turlarini diversifikatsiyalash va mahalliy tadbirkorlik subyektlarini turizm qiymat zanjiriga jalb qilish darajasiga bog‘liq.

Shu sababli mazkur tadqiqotda Farg‘ona vodiysining turistik salohiyatini hududiy va funksional xususiyatlar asosida baholash, turizm yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashgan zonalarni shakllantirish, ularning o‘zaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish hamda strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi turistik zonalashtirishni faqat geografik joylashuv yoki mavjud resurslar yig‘indisi asosida emas, balki hududiy ixtisoslashuv, iqtisodiy samaradorlik, investitsion jozibadorlik, raqamli infratuzilma va inklyuziv rivojlanish mezonlarini birlashtirgan kompleks yondashuv asosida takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda turizm xizmatlarini strategik rivojlantirish va hududiy zonalashtirish jarayonini o‘rganish uchun kompleks uslubiy yondashuv qo‘llanildi [5]. Tadqiqot dizayni sifat va miqdoriy usullarni birlashtirgan aralash yondashuvga asoslandi. Bunda hududlarning turistik resurs salohiyati, infratuzilma bilan ta’minlanganligi, iqtisodiy faolligi va turistik xizmatlar rivojlanish darajasi o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Shuningdek, turistik hududlarning tabiiy-geografik, tarixiy-madaniy va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olish orqali ularning ixtisoslashuv yo‘nalishlarini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy usullardan foydalanildi:

- Tizimli yondashuv – turizm faoliyatini o‘zaro bog‘liq iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida o‘rganish, turistik resurslar va xizmat ko‘rsatish subyektlari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash uchun [1].
- Qiyosiy tahlil – olimlarning turistik zonalashtirishga oid ilmiy qarashlarini hamda hududlarning turistik rivojlanish xususiyatlarini solishtirish, mavjud farqlar va ustunliklarni aniqlash uchun [1; 2; 3].
- Statistik guruhlash – hududlarning turistik resurs salohiyati, turistlar oqimi, joylashtirish vositalari, investitsiyalar va xizmatlar hajmini muayyan belgilar

asosida tasniflash uchun [13].

- Integral baholash – hududiy turistik salohiyatni iqtisodiy, infratuzilmaviy, tabiiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni umumlashtirish orqali yagona ko‘rsatkich asosida baholash uchun [13].
- Strategik rejalashtirish – turistik zonalarni rivojlantirishning uzoq muddatli yo‘nalishlari, hududiy ixtisoslashuv va investitsion ustuvorliklarni belgilash uchun [5].

Ma’lumot to‘plash jarayonida rasmiy statistik ma’lumotlar, ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, hududiy rivojlanish dasturlari va tadqiqot muallifining amaliy kuzatishlaridan foydalanildi. Tanlanma sifatida Farg‘ona vodiysining uchta viloyati – Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari olindi [7; 8; 17]. Hududlarni tanlashda ularning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy-madaniy merosi, turistik obyektlari, transport infratuzilmasi va turistik xizmatlarni rivojlantirish salohiyati hisobga olindi. Har bir viloyatning turistik ixtisoslashuvi va mavjud resurslaridan foydalanish darajasi qiyosiy o‘rganildi.

Tahlil jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Turistik zonalar salohiyatini ifodalovchi asosiy iqtisodiy, tabiiy va infratuzilmaviy ko‘rsatkichlarni tanlash.
2. Hududlar kesimida ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va chegaraviy qiymatlarni aniqlash.
3. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha xususiy ballarni hisoblash.
4. Turistik zonalar salohiyatining o‘rtacha qiymatini aniqlash.
5. Umumiy hududiy salohiyat ko‘rsatkichini shakllantirish.
6. Hududlarni rivojlanish darajasi bo‘yicha guruhlarga ajratish.
7. Turistik zonalarning integral rivojlanish ko‘rsatkichini hisoblash.
8. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini baholash.
9. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlash.
10. Turistik zonalarni strategik rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish [13].

Integral baholash jarayonida hududlarning alohida ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslanib, umumiy turistik salohiyatga qo‘shadigan hissasi aniqlandi. Hududlarni guruhlash orqali rivojlanish darajasi yuqori, o‘rta va nisbatan past bo‘lgan turistik zonalar ajratildi. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashda mavjud salohiyat bilan amaldagi turistik xizmatlar hajmi, turistlar oqimi va investitsion faollik o‘rtasidagi bog‘liqlik hisobga olindi. Bu esa turistik salohiyati yuqori bo‘lsa-da, mavjud resurslardan yetarli darajada foydalanilmayotgan hududlarni aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida olingan natijalar umumlashtirilib, Farg‘ona vodiysidagi turistik hududlarning ixtisoslashuv yo‘nalishlari va rivojlanish darajasi aniqlandi. Bunda hududiy resurslardan samarali foydalanish, turistik infratuzilmani takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish va hududlararo turistik hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi. Natijada Farg‘ona vodiysida turizm xizmatlarini strategik

rivojlantirish va hududiy zonalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm xizmatlarini rivojlantirishda quyidagi strategik yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

Infratuzilmani rivojlantirish: Turizm infratuzilmasi zamonaviy talablarga mos bo‘lishi sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratadi [12]. Aeroportlar, mehmonxonalar, yo‘l va transport tarmoqlarining yuqori darajada rivojlanishi turizm sohasidagi raqobatbardoshlikni oshiradi [4].

Raqamlashtirish: Turizm xizmatlarining raqamlashtirilishi, jumladan, onlayn bronlash, virtual turistik gidlar va mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi [15]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, smart-turizm texnologiyalari sayyohlarning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Turistik zonalashtirish jarayoni tabiiy resurslar, ekologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, madaniy meros, transport va infratuzilma, huquqiy va institutsional omillar, moliya va investitsiyalar kabi ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Hududiy zonalashtirish jarayoni[1]

[1] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.


Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish: Turizm xizmatlariga yangi texnologiyalarni qo‘llash, jumladan, virtual haqiqat, avtomatlashtirilgan xizmat ko‘rsatish tizimlari va sun’iy intellekt yordamida tajribani boyitish [5; 15].

Turizm brendini yaratish: Har bir davlat yoki mintaqaning o‘ziga xos turizm brendini yaratish orqali raqobatbardoshligini oshirish mumkin [10]. Bu turizm resurslarini maqsadli auditoriyaga samarali reklama qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida turistik zonalar faoliyatini rivojlantirishning ikki asosiy strategik yo‘nalishi belgilandi (2-rasm):

1-strategik yo‘nalish: Turistik faoliyat turlari bo‘yicha hududiy turistik zonalarning mamlakat va xalqaro darajada raqobatbardoshligini oshirish.

2-strategik yo‘nalish: Hududda turistik faoliyat turlari rivojlanishining kelgusi davrda barqaror va inklyuziv ekanligiga to‘laqonli ishonchni shakllantirish.



2-rasm. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida turistik zonalar faoliyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari[2]

Farg‘ona vodiysining hududiy birliklari turistik faoliyat turlari bo‘yicha baholash 10 bosqichda amalga oshiriladi (1-jadval).

Yuqoridagilarga asoslangan holda Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari) bo‘yicha mavjud hududiy resurs salohiyatlari va turistik

[2] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

destinatsiyalaridan kelib chiqqan holda hudud uchun qisqa va uzoq masofali yoki sayohat muddatining davomiyligini nazarda tutuvchi turistik marshrutlarni o‘z ichiga oluvchi “Oltin vodiy sayyohlik halqasi” deb nomlangan turistik marshrutlar majmui taklif etiladi.

1-jadval

Turistik zonalar faoliyatini baholash bosqichlari[3]

Bosqich	Baholash jarayoni	Natija
1-bosqich	Turistik zonalarning hududiy salohiyati ko‘rsatkichlarini uning tarkibiy qismlari (n_{ij}) kesimida tanlash	Turistik zonalar faoliyati hududiy salohiyatining tuzilishi 9 ta xususiy belgi salohiyati – ishlab chiqarish, tabiiy resurs, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, madaniy va etnologik, ekologik, infratuzilma, axborot, institutsional salohiyat asosida baholanadi.
2-bosqich	Chegaraviy va o‘rtacha qiymatlarni aniqlash uchun hududlar kesimida ko‘rsatkichlarni tahlil qilish ($P_{ijk}, P_{ij_{max}}, P_{ij_{min}}, \overline{P}_{ij}$)	Farg‘ona vodiysining hududiy birliklari kesimida tanlangan xususiy belgi salohiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar to‘plami uchun chegaraviy va o‘rtacha qiymatlar aniqlanadi.
3-bosqich	i-hudud salohiyati j-elementining k-ko‘rsatkichining xususiy ballarini hisoblash (PRC_{ijk})	Har bir ko‘rsatkich uchun uning miqdoriy o‘lchovi 100 balli baholash shkalasi orqali taqqoslanadigan shaklga keltiriladi.
4-bosqich	Turistik zonalarning hududiy salohiyati tarkibiy qismlarining o‘rtacha balini aniqlash ($\overline{PRC}_{jk}$)	Hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi: $\overline{PRC}_{jk} = \frac{\sum_{i=1}^{n_j} PRC_{ijk}}{n_j}, \quad j = \overline{1,m}, \quad k = \overline{1,l}$
5-bosqich	k-hududda turistik zona faoliyatini rivojlantirishning umumiy hududiy salohiyat ko‘rsatkichini hisoblash (ARC_k)	Hisoblash quyidagi formulaga muvofiq amalga oshiriladi: $ARC_k = \sum_{j=1}^{m} \overline{PRC}_{jk} \cdot \beta_j, \quad k = \overline{1,l}$ βj – xususiy belgi salohiyatining vazn koeffitsienti.
6-bosqich	Turistik zonalar faoliyatini rivojlantirishning umumiy salohiyati bo‘yicha hududlarni guruhlash	Umumiy hududiy salohiyat ko‘rsatkichi asosida Stjerjess qonuniyati asosida hududlar guruhlarga ajratiladi.
7-bosqich	Hududlar kesimida turistik zona faoliyatini rivojlantirish darajasining integral ko‘rsatkichini hisoblash (AIL_k)	Turistik zonaning rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari (IL_{dk}) aniqlanadi: harakatlar intensivligi indeksi; agroturizm xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromad, 1 ta subyekt bo‘yicha turizm xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan daromad. Yuqoridagi ko‘rsatkichlarning umumiy holatini aks ettiruvchi integral ko‘rsatkich quyidagi formulaga muvofiq amalga oshiriladi: $AIL_k = \frac{\sum_{d=1}^{n} IL_{dk}}{n}, \ d = \overline{1,n=4}, k = \overline{1,l}.$ Formuladagi turistik zichlik koeffisienti qiymatlari quyidagi bog‘lanish asosida me’yorlashtiriladi: $IL_{dk} = \frac{L_{dk}}{L_{d\max}} \cdot 100,$ bunda $L_{d\max} = \max_k L_{dk}$
8-bosqich	Turistik zonani rivojlantirishning umumiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash (Eck)	Hisoblash quyidagi formulaga muvofiq amalga oshiriladi: $E_{ck} = \frac{AIL_k}{ARC_k}, \ k = \overline{1,l}.$
9-bosqich	Turistik zonaning investitsion jozibadorligi darajasi bo‘yicha hududlarning o‘rnini aniqlash	Hududlarning investitsion jozibadorlik mezoni bo‘yicha 4 ta chegarasi — “istiqbolsiz”, “rivojlanish imkoniyatiga ega”, “barqaror” va “istiqbolli” chegaralari aniqlanadi.
10-bosqich	Turistik zona faoliyatini hududiy rivojlantirishning asosiy maqsadlarini aniqlash va chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish	Hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, raqobat ustunliklari va salohiyatini hisobga olgan holda turistik zonani rivojlantirish istiqbollarini aniqlash maqsadida baholash natijalari umumlashtiriladi.

[3] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

“Oltin vodiy sayyohlik halqasi” turistik yo‘nalishi Farg'onada 22 ta, Andijonda 18 ta va Namanganda 17 ta tashrif obyektlarini o‘z ichiga olgan. Vodiyga tashrif buyurgan turistlarni aniq marshrut asosida kutib olinadi. Sayyohlarga qiziqarli manzillar taqdim etiladi. Mehmonlar “Oltin vodiy sayyohlik halqasi” turistik yo‘nalishida joylashgan madaniy meros obyektlari, eko- va agroturizm obyektlari, ko‘ngilochar maskanlar va hunarmandchilik markazlari bilan yaqindan tanishadilar (3-rasm).



3-rasm. Farg‘ona vodiysi viloyatlari hududlarining turizm faoliyatini rivojlantirish salohiyati bo‘yicha zonal xaritasi[4]

Ko‘rsatib o‘tilgan faoliyatni dastlabki tashkil etish va rivojlantirish bosqichida tizimni davlat hamda bozor tuzilmalari tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish usuli mavjud bo‘lmasa, faoliyatni mustaqil tizim sifatida shakllantirish va rivojlantirish ancha qiyinchiliklar tug‘diradi [13]. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot jarayonida hududlarda turizm faoliyatini rivojlantirishning dastlabki bosqichida qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi (2-jadval).

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan takliflar beshta asosiy yo‘nalishni qamrab olgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishlar doirasida ko‘rsatib o‘tilgan faoliyat Farg‘ona vodiysida turistik faoliyatni hududiy darajada rivojlantirishda eng muhim yo‘nalishlar

[4] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sifatida baholanadi.

2-jadval

Hududiy turizm faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish[5]

Yo‘nalish	Takliflarning mazmuni
Qo‘llab-quvvatlash tizimining kontseptual tuzilishini o'zgartirish	Foydalanish tamoyillari, institutlari va kutilayotgan natijalarni aniqlashtirish bo‘yicha takliflarni amalga oshirish, qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining maqsadi va samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash
Moliyalashtirish tizimini takomillashtirish	Turizm faoliyati uchun “istiqbolli” zonaga kiruvchi hududlar uchun mavjud dasturlar doirasida maqsadli kreditlash hajmlarini kengaytirish; kreditlash mexanizmini soddalashtirish; subsidiyalash vositalaridan foydalanish; ijtimoiy grantlarni qo‘llab-quvvatlash; investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat kafolatlarini ta’minlash [9].
Qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini kengaytirish	To‘siqsiz turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlarni eksport qilish, davlat-xususiy sheriklik; ijtimoiy tadbirkorlik va ko‘p funksiyali loyihalarni qo‘llab-quvvatlash; tarixiy, madaniy va tabiiy merosni saqlashga qaratilgan investitsiyalarni jalb qilish [6].
Axborot va konsalting yordamini takomillashtirish	Hududiy turizm faoliyatidagi loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatli tajribani tarqatish; maxsus platformalar joylashtirilgan veb-saytlarni yaratish; mahalliy davlat va nodavlat boshqaruv tizimlari mutaxassislari uchun axborot va maqsadli seminarlar o‘tkazish [15].
Infratuzilma rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash	Hududda turizm faoliyatini axborot bilan ta’minlash, konsalting ta’minoti, hududiy turizm mahsulotlari targ‘ibotini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan hududiy turizm agentliklarini (Markazlarini) yaratish

Tadqiqot jarayonida turizm faoliyatini rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlarini baholash va tanlash algoritmi ishlab chiqildi (4-rasm).

Hududiy turizm faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasida viloyatlar miqyosida quyidagi o‘zgarishlarning amalga oshirilishi ko‘zda tutilishi lozim:

1. Aholi va tadbirkorlarga tegishli turistik obyektlardan foydalanishni umumiy maqsad yo‘lida birlashtirish yo‘nalishlarini belgilash.

2. Turistik zonalar faoliyatiga tegishli munosabatlarda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni huquqiy jihatdan tartibga solish.

3. Turistik zonalar faoliyatida yuzaga keladigan yangi munosabatlarni tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan takomillashtirish.


4. Turistik zonalarning mustaqil infratuzilmasini shakllantirish va uning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar doirasida modernizatsiya jarayonini amalga oshirish.

5. Turistik zonalar faoliyati shakllanishi bilan yuzaga keluvchi mavjud o‘zgarishlar doirasida davlat va nodavlat institutsional tuzilmalarida zaruriy

[5] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

islohotlarni amalga oshirish.

6. Turistik zonalar faoliyati amalga oshirilayotgan hududning imidjini shakllantirish.



4-rasm. Turizm faoliyati rivojlanishiing strategik ustuvor yo‘nalishlarini baholash va tanlash algoritmi[6]

Tadqiqot jarayonida hududlarda turizm faoliyatini rivojlantirishning kontseptual asoslarini shakllantirish asosida strategik yo'nalishlarni zonalashtirgan holda belgilash va amalga oshirish yetarli shart-sharoitlar va resurs salohiyatiga ega hududlarda turizm faoliyatini mustaqil faoliyat tizimi sifatida shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Farg‘ona viloyatida turizm salohiyatini ochish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida Qo‘qon va Marg‘ilon ziyorat turizmi markazlariga, So‘x, Quva, Beshariq va Farg‘ona tumanlari tibbiy va ekologik turizmga ixtisoslashtirilishi rejalashtirilgan [9; 17]. Bu hududiy zonalashtirish jarayonining amaliy ifodasi sifatida

[6] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

qaralishi mumkin.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishda hududlarni turistik faoliyat turlari bo‘yicha zonalashtirishning ilmiy va amaliy istiqbollarini ko‘rsatadi. Olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, hududiy turistik salohiyatni baholash, ixtisoslashgan zonalarni shakllantirish va ularni yagona turistik tizimga birlashtirish masalalari bo‘yicha xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari N.S. Kudryavtsev, J.G. Trabskaya va L.V. Xoreva (2018) tomonidan ishlab chiqilgan turistik zonaning bozor talabiga yo‘naltirilganligi haqidagi nazariy qoidalarni tasdiqlaydi [1]. Farg‘ona vodiysi misolida turistik zonalarni shakllantirishda mavjud tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar bilan bir qatorda, sayyohlarning ehtiyojlari, turistik xizmatlarga bo‘lgan talab va hududning bozordagi jozibadorligini hisobga olish zarurligi aniqlandi. Bu esa turistik zonalashtirishni faqat geografik joylashuvga asoslangan jarayon sifatida emas, balki bozor talabiga mos strategik boshqaruv vositasi sifatida tashkil etish lozimligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, A.V. Lebedev (2019) [2] va S.A. Stepanova (2020) [3] tomonidan taklif etilgan turistik zonaning resurs salohiyati va hududlararo integratsiyaga asoslangan ta’riflari tadqiqot natijalarida o‘z tasdig‘ini topdi. Farg‘ona vodiysining hududiy birliklari bo‘yicha resurs salohiyatini baholash hududlar o‘rtasida tabiiy, tarixiy-madaniy va infratuzilmaviy imkoniyatlar bo‘yicha farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shu sababli barcha hududlarda bir xil turistik rivojlanish modelidan foydalanish o‘rniga, ularning o‘ziga xos xususiyatlariga mos ixtisoslashgan zonalarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, xorijiy tajriba tahlili turizm klasterlarida davlat-xususiy sheriklik, resurslarni oqilona taqsimlash va qo‘shma marketing strategiyalari hududlarning raqobatbardoshligini oshirish omillari ekanligini ko‘rsatadi [14]. Ushbu xulosalar Farg‘ona vodiysida turistik zonalarni o‘zaro bog‘lash, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar bilan uyg‘unlashadi. Ayniqsa, turistik xizmatlar zanjirida mehmonxonalar, transport tashkilotlari, hunarmandchilik markazlari va sayyohlik agentliklarining hamkorligini kuchaytirish hududiy turizm klasterlarining iqtisodiy natijadorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, BMT Turizm va Jahon Turizm Tashkiloti hisobotlarida ta’kidlangan turizm daromadlarini mahalliy aholi o‘rtasida adolatli taqsimlash, ijtimoiy ishtirok va inklyuziv rivojlanish tamoyillari tadqiqot natijalari bilan mos keladi [6; 16]. Farg‘ona vodiysida turistik zonalarni rivojlantirishda mahalliy aholi, oilaviy tadbirkorlik subyektlari, hunarmandlar va kichik biznes vakillarini turistik xizmatlar ko‘rsatish jarayoniga keng jalb qilish zarurligi asoslandi. Bunday yondashuv turizmning iqtisodiy natijalarini hududiy aholi daromadlariga yo‘naltirish va yangi bandlik manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadida belgilangan tematik turistik zonalar va klasterlarni tashkil etish vazifalari bilan bevosita bog‘liq [7]. Strategiyada nazarda tutilgan turistik yo‘nalishlarni kengaytirish va hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish vazifalari tadqiqotda taklif etilgan “Oltin vodiy sayyohlik halqasi” turistik marshrutlar majmuasining konseptual asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuv Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlarining turistik obyektlarini yagona marshrutlar tizimiga birlashtirish, turistlarning hududda qolish muddatini uzaytirish va turistik xizmatlar assortimentini kengaytirishga yo‘naltirilgan.

Oltinchidan, tadqiqot natijalari hududiy turistik salohiyatni baholashda integral yondashuvdan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Alohida tabiiy yoki tarixiy-madaniy resurslarning mavjudligi hududning yuqori turistik rivojlanish darajasini to‘liq ifodalamaydi. Bunda transport infratuzilmasi, joylashtirish vositalari, xizmatlar sifati, investitsion faollik va raqamli xizmatlarning rivojlanish darajasi ham hisobga olinishi lozim. Shu sababli turistik zonalarning rivojlanishini kompleks ko‘rsatkichlar asosida baholash ularning real iqtisodiy salohiyatini aniqlashda samarali uslubiy yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqotning cheklovlari. Tadqiqot natijalarini talqin qilishda ayrim cheklovlarni hisobga olish zarur:

- tadqiqot geografik jihatdan Farg‘ona vodiysining uchta viloyati bilan chegaralangan;
- ayrim hududiy statistik ko‘rsatkichlarning to‘liqligi va taqqoslanish darajasi cheklangan;
- turistik xizmatlarga talabning mavsumiy o‘zgarishlari alohida ekonometrik model asosida baholanmagan;
- xalqaro turizm oqimlariga ta’sir etuvchi tashqi iqtisodiy va favqulodda omillar to‘liq qamrab olinmagan.

Kelgusi tadqiqot yo‘nalishlari.

1. Olingan natijalarni yanada rivojlantirish uchun boshqa hududlar misolida turistik zonalashtirish modelini sinovdan o‘tkazish.
2. Turistik faoliyatning iqtisodiy samaradorligini ekonometrik usullar orqali baholash,
3. Raqamli texnologiyalarning turistlar oqimi va xizmatlar sifatiga ta’sirini aniqlash hamda turistik zonalarning ekologik barqarorligini baholash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysida turistik xizmatlarni rivojlantirishda hududiy ixtisoslashuv, integral baholash, klasterli hamkorlik va strategik rejalashtirishni birlashtirish zarurligini asoslaydi. Taklif etilgan yondashuv hududlarning mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish, turistik xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish va yagona mintaqaviy turistik makonni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

XULOSA

Mazkur tadqiqot Farg‘ona vodiysida turizm xizmatlarini strategik rivojlantirishda hududlarni turistik faoliyat turlari bo‘yicha zonalashtirish istiqbollarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Turizm xizmatlarini strategik rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik omillarni o‘z ichiga oladi.

2. Turistik zonalashtirish jarayoni tabiiy resurslar, ekologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, madaniy meros, transport va infratuzilma, huquqiy va institutsional omillar, moliya va investitsiyalar kabi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi.

3. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida turistik zonalar faoliyatini rivojlantirishning ikki asosiy strategik yo‘nalishi belgilandi: turistik faoliyat turlari bo‘yicha hududiy turistik zonalarning raqobatbardoshligini oshirish va hududda turistik faoliyat turlari rivojlanishining barqaror va inklyuziv ekanligiga ishonchni shakllantirish.

4. Farg‘ona vodiysi uchun “Oltin vodiy sayyohlik halqasi” deb nomlangan turistik marshrutlar majmui taklif etildi.

5. Hududiy turizm faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan uslubiy yondashuv va takliflar Farg‘ona vodiysi hududlarida turizm faoliyatini mustaqil tizim sifatida shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlar uchun turizm faoliyatining iqtisodiy samaradorligini chuqurroq tahlil qilish va raqamli texnologiyalarning turizm xizmatlariga ta'sirini o‘rganish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Кудрявцев, Н.С., Трабская, Ж.Г., & Хорева, Л.В. (2018). Туризм и региональное развитие: теоретические и практические аспекты. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГЭУ.
2. Лебедев, А.В. (2019). Туристские зоны и их роль в развитии регионального туризма. Москва: Инфра-М.
3. Степанова, С.А. (2020). Туристско-рекреационные зоны: формирование и развитие. Москва: КноРус.
4. Dwyer, L., Forsyth, P., & Spurr, R. (2010). Tourism Economics and Policy. Channel View Publications.
5. Bristow, G. (2005). The Geography of Innovation: Regional Innovation Systems and the New Economy. The Journal of Economic Geography, 5(3), 285-309.
6. UN Tourism & World Tourism Alliance. (2025). Tourism as a Key Driver of Inclusive Development. Madrid: UN Tourism.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022). 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2026). “Farg‘ona” turistik-rekreatsion zonasini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PQ-5-son). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2024). O‘zbekiston

Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PQ-335-son). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.
10. Ergashev, A. (2024). The “Golden Ring” Concept in Fergana: Strategy for Forming a New Tourism Gem. Journal of Tourism Research, 15(2), 45-58.
11. Turizm qo‘mitasi. (2024). O‘zbekistonda yangi turistik yo‘nalishlar ochilmoqda. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi.
12. UNESCAP. (1999). Developing Ecotourism in the Asian Region. Bangkok: United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific.
13. de Grandpré, F. (2009). Modelling a Domestic Tourism Destination: Adapting the Regional Tourism Model. Via Tourism Review, 1(1), 1-25.
14. Ming, L., et al. (2009). Tourism Cluster Development in Singapore: Cultural and Medical Tourism. Asia Pacific Journal of Tourism Research, 14(3), 245-260.
15. Smart Tourism Research Group. (2025). Unveiling the Digital Pathways: Exploring the Key Drivers Behind Travelers' Decision-Making in Smart Tourism. Emerald Publishing Limited, 28(2), 112-135.
16. UN General Assembly. (2026). Report of the Secretary-General on Sustainable and Resilient Tourism for Poverty Eradication and Environmental Protection (A/81/278). New York: United Nations.
17. Farg‘ona viloyati hokimligi. (2026). Farg‘ona viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha hisobot. Farg‘ona: Farg‘ona viloyati hokimligi.
18. Kun.uz. (2026). Fergana Region to Launch $300 Million in Tourism Projects by 2027. Toshkent: Kun.uz.